

AXBOROT TUSHUNCHASI VA TURLARI

Iskandarova Oltinoy Akmal qizi

Urganch Davlat Pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot tushunchasi, uning hozirgi vaqtdagi o'рни, turlari va unga bo'lgan ehtiyoj batafsil yoritilgan bo'lib, axborotning yoshlar tarbiyasiga, ongiga va faoliyatiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.[1]*

Kalit so'zlar: *axborot(informatsiya) tushunchasi, radio, televideniya, kitob, gazeta-jurnal, axborotlashtirilgan jamiyat.*

KIRISH

Inson zoti tug'ilibdiki, atrof-muhitni anglashga, dunyo hodisalarini tushunishga harakat qiladi. Shu sababli uning axborotga bo'lgan ehtiyoji kundan kunga oshib boradi. Shu o'rinda axborot tushunchasiga izoh berish lozim. Xo'sh, axborot o'zi nima? U nima uchun xizmat qiladi? Bu savollarga shunday izoh berish mumkin. "Axborot (informatsiya) tushunchasi lotin tilidagi "informatio" so'zidan olingan bo'lib, bayon etish, tushuntirish, izohlash kabi ma'nolarni bildiradi. Axborot deyilganida biz radio va televideniya xabarlarini, ma'lumotlar bazasini, kutubxonadagi kitob, gazeta-jurnallarni, inson bilan muloqot qilish orqali ilmiy jurnallardan olingan bilimlarni nazarda tutamiz" 1.

Axborot so'zi ma'lumot, xabar degan ma'nolarni ham anglatadi. Axborot – butun borliq, olamda ro'y berayotgan hodisalar va voqealar haqidagi ma'lumotlardir. Axborot, asosan, uch xil shaklda uzatiladi. Bular: og'zaki, yozma va elektron shakldir. Bu shakldagi axborotlar sezgi a'zolari orqali qabul qilinadi. Tarixdan ma'lumki, eng qadimgi axborotlar og'zaki tarzda bo'lgan. Chunki yozuv kashf etilmasdan oldin ma'lumotlar og'zaki tarzda uzatilgan. Keyinchalik insonlar yozishni o'rganganidan so'ng, axborotning yozma shakli ham keng tarqalgan. Qabrtoshlarga, haykallarning peshtoqlariga, ibodatxona devorlariga yozib qoldirilgan axborotlar tarixni o'rganishda, insonlarning urf-odatlarini-yu qadriyatlarini tiklashda asosiy man'balardan biri hisoblanadi. Keyinchalik paydo bo'lgan gazetalar, jurnallar, to'plam va darsliklar orqali yozma axborot keng tarqalgan. Bugungi "Axborot asri" deb nomlangan XXI asrda axborotning uchinchi shakli bo'lgan elektron axborotlarga bo'lgan ehtiyoj ham, qiziqish ham juda yuqori.

Hozirgi kunda elektron axborot eng ommaviysi hisoblanadi. Dunyo xalqlari orasida internet o'zining yuksak o'rniga ega. "XIX asr oxirida AQSH da ishga yaroqli aholining 95% dan ortig'i jismoniy mehnat bilan va 5% ga yaqini esa axborotga ishlov berish bilan shug'ullangan. Hozirgi kunda esa, mehnat manbaalari nisbatining deyarli aksini ko'rish,iz mumkin" 2.

Hozirgi kunni internetsiz , ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Lekin internetdagi ma'lum bir xabarni o'qiyotganda uning aniq yoki "fake" xabar ekanligiga ham e'tibor qaratish lozim. Avvalo biror saytdan axborot o'qib uni boshqalarga tarqatishdan oldin o'sha xabarning rasmiy yoki norasmiy sayt , kanallardan uzatilganligi, chop etilgan sanasi va bir qator muhim jihatlariga e'tibor qaratish lozim .

"Axborot jamiyati" – bu zamonaviy xalqlar jamiyatida, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan keyin axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va keng qo'llanilishi bilan bog'liq ijtimoiy, iqtisodiy , texnologik va madaniy o'zgarishlarni tavsiflovchi keng atama. Axborot jamiyati – bu axborotni yaratish, tarqatish va manipulyatsiya qilish eng muhim iqtisodiy va madaniy faoliyatga aylangan jamiyat. Axborot jamiyatining iqtisodiy asosi asosan sanoat yoki agrar jamiyatlarga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Axborot jamiyatining dastgohlari stanoklar yoki pulluklar emas , balki kompyuterlardir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi globallasuv davrida axborotning o'rni juda katta. Axborot orqali dunyoning u chekkasidagi ma'lumotni dunyoning bu chekkasidagi inson bimalol qabul qilishi mumkin. Bu axborot uzatish ancha tezlashganini anglatadi. Bugungi davr yoshlari ham ijtimoiy tarmoqlardan o'z o'rnida foydalana oladilar . Shuni eslatib o'tish lozimki, kelajak ertasi bo'lgan yoshlarga ijtimoiy tarmoqlar, internet tizimlari haqida yetarlicha ma'lumot va shu o'rinda tushuntirish ishlari olib borish , ularga internetdan to'g'ri , unumli , oqilona va maqsadli foydalanish bo'yicha tavsiya hamda xulosalar berilishi maqsadga muvofiq. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek:

"Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o'z hayotini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog'liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi" .4

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.T.Abdilaxatovich "Axborot tizimlari nazariy asoslari". Toshkent – 2012.7-bet
2. Shu manba. 9-bet
3. <https://www.techtarget.com>
4. 4.Islom Karimov " Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent - Ma'naviyat. 43-bet
5. 5.www.ziyouz.com